

**Bababekova Dilfuza Sherqulovna**  
**TMI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası dotsenti, i.f.n.**  
**Utanov Asrorbek Zokir o‘g‘li**  
**TMI talabasi**

## **SANOAT TARMOQLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI**

**Annotatsiya.** Maqolada milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashda sanoatning ahamiyati va sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishning obyektiv zaruriyati haqida so‘z yuritilgan. O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmog‘ining rivojlanish dinamikasi tahlil qilingan. Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosa va takliflar keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** milliy iqtisodiyot, yetakchi tarmoqlar, diversifikatsiya, modernizatsiya, sanoat, raqobat, raqobatbardoshlik, sanoat mahsuloti.

**Аннотация.** В статье рассматриваются значение промышленности в обеспечении национальной конкурентоспособности и объективная необходимость повышения конкурентоспособности отраслей. Проанализирована динамика развития промышленного сектора в экономике Узбекистана. Описываются научные выводы и рекомендации по повышению конкурентоспособности промышленности.

**Ключевые слова:** национальная экономика, диверсификация, модернизация, промышленность, конкуренция, конкурентоспособность, промышленные товары.

**Annotation.** The article deals with the importance industry in ensuring national competitiveness and the objective need for increasing the competitiveness of industries. The dynamics of industrial sector development in the economy of Uzbekistan is analyzed. There are scientific conclusions and recommendations for improving the competitiveness of industrial sectors.

**Key words:** national economy, leader sectors, diversification, modernization, industry, competition, competitiveness, industrial goods.

Bugungi kunda iqtisodiyotning tobora integratsiyalashuvi, mamlakatimiz iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanib borayotganligi hamda iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan islohot va dasturlarning amalga oshirilishi iqtisodiyot tarmoqlarini yanada rivojlantirish va raqobatbardoshligini ta’minlashni obyektiv zaruriyatga aylantirmoqda. Chunki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi korxonalar va tarmoqlarning muvaffaqiyatli rivojlanib borishi hisobiga shakllanadi.

Real sektor tarmoqlari ichida sanoat milliy iqtisodiyotning yirik yetakchi sohasi boʻlib hisoblanadi. Mamlakatimizda sanoat korxonalarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, texnik-texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli ishlar, hududlarda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi globallashtirish hamda jahon bozori konyunkturasining keskin oʻzgarib borishi natijasida sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning “lokomotiv” i hisoblangan sanoat tarmogʻini yanada rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi uchinchi ustuvor yoʻnalishining “Tarkibiy oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish” deb nomlangan bandida quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

- yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qoʻshimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga oʻtkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar[1].

2018-yil 28-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Parlamentga yoʻllagan Murojaatnomasida ham iqtisodiyotning barqaror oʻsishi, birinchi navbatda, yetakchi sohalarda rivojiga bevosita bogʻliqligi hamda iqtisodiyot rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozimligi taʼkidlangan[2].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi “Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PF-5621-sonli Farmoni imzolandi va ushbu Farmon bilan Iqtisodiyot vazirligi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi etib qayta tashkil etildi. Iqtisodiyot va sanoat vazirligining asosiy vazifalaridan biri sifatida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy va iqtisodiyotning real sektori holati, tashqi bozorlari konyunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bogʻliq holda iqtisodiyot asosiy sohasini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish etib belgilandi.


Xorijlik yetakchi olimlarning ilmiy ishlarida, mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida ham sanoat tarmoqlarida raqobatbardoshlik va uni oshirish masalalari atroflicha yoritilgan, tahlil qilingan hamda rivojlantirish yoʻnalishlari boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jumladan, Kresl va B.Singx raqobatbardoshlikning sanoat va chakana savdoda yalpi qoʻshimcha qiymat hamda biznes xizmatlarning yalpi qiymati kabi jihatlariga eʼtibor qaratganlar[3].

Iqtisodchi-marketolog olim M.Porter “Raqobatbardoshlik – tovar, xizmat va bozor munosabatlari subyekting bozorda mavjud boʻlgan oʻxshash tovar, xizmatlar bilan va shuningdek bozor munosabatlarining raqobatlashuvchi subyektlari bilan baravar bozorga chiqish xususiyatidir, bu xususiyatni baholash esa yuqori, oʻrta va past darajadagi raqobatbardoshliklarni alohida-alohida belgilab berish imkonini beradi”, - deb taʼrif bergan.

Oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlardan Ortiqov A., Maxmudov E. va boshqalar oʻz ilmiy ishlarida sanoat tarmogʻining milliy iqtisodiyotda tutgan oʻrni, sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning strategik yoʻnalishlari haqida toʻxtalib, ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, sanoat tarmogʻini diversifikatsiya va modernizatsiyalash boʻyicha amalga oshirilayotga chora tadbirlar natijasida sanoat tarmogʻi yildan-yilga rivojlanib bormoqda.




**1-rasm. 2017-yilda Oʻzbekiston Respublikasida sanoatning rivojlanish koʻrsatkichlari<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) maʼlumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Mamlakat iqtisodiyoti tarkibida sanoat hal qiluvchi tarmoq hisoblanadi. Shu sababli ham YaIM tarkibida sanoatning ulushini oshirish muhim vazifalardan biri sanaladi. 2000-yilda mamlakatimiz YaIM i tarkibida sanoatning hajmi 16,2 % ni tashkil etgan bo’lsa, 2015-yilda 9,5 % o’sdi va 2017-yilda 26,7 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham yildan- yilga tobora ortib bormoqda. 2000-yilda ushbu ko’rsatkich 1013,8 ming so’mni tashkil etgan bo’lsa 2017-yilga kelib ushbu ko’rsatkich 3644,5 ming so’mni tashkil etdi.

Keyingi yillarda sanoatning asosiy tarmoqlarida, xususan, oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va metallga ishlov berish sanoati, kimyo sanoati va farmasevtika sanoatida faoliyat yuritib kelayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonining oshib borayotganligi sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining oshib borishini ta’minlamoqda. 2000-yilda sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 12,9 % ni tashkil etgan bo’lsa 2010-yilda ushbu ko’rsatkich 2 martaga oshib 26,6 % ni tashkil etdi, 2017-yilda esa sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 39,6 % ga teng bo’ldi.



**2-rasm. 2017-yilda hududlarning respublika jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda<sup>2</sup>**

<sup>2</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Respublika hududlarida ham sanoat tarmoqlarining rivojlanib borishi hamda raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi kuzatilmoqda.

Hududlarda raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish boʻyicha amalga oshirilgan loyihalar natijasida 2017-yilda Andijon, Xorazm, Namangan viloyatlarida, Qoraqalpogʻiston Respublikasi hamda Toshkent shahrida 2016-yilga nisbatan ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada oʻsishi taʼminlandi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida Toshkent shahri (umumiy hajmning 19.6 % ulushini), Toshkent (14.6 %), Andijon (9.2 %), Qashqadaryo (7.5%) viloyatlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng kam ulush Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo, Namangan va Xorazm viloyatlariga toʻgʻri kelmoqda (2-rasm).

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori.

Respublikamizda 2017-yilda 10.2 mingta sanoat korxonolari tashkil etildi. Ulardan 2.6 mingta korxonalar Toshkent shahriga, 1144 ta Fargʻona viloyatiga, Toshkent viloyatiga 1057 ta korxonalar va boshqa hududlarga toʻgʻri kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va dasturlarning bajarilishi natijasida milliy iqtisodiyotda sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Sanoat tarmoqlarining rivojlanib borishi natijasida mamlakatda ishlab chiqarish hajmi va sanoat mahsulotlarini eksport qilishning ortishi, aholining ish bilan bandligini taʼminlashdagi ahamiyati hamda pirovard natijada aholining turmush darajasi va sifatining oshib borishiga xizmat qiladi.

Quyida keltirilayotgan takliflar mamlakat milliy iqtisodiyotida sanoatning ulushini koʻpaytirib, uning raqobatbardoshligini oshirishga yordam berishi mumkin:

- Import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini faoliyatini yoʻlga qoʻyishni takomillashtirish;
- Sanoat tarmoqlarida iqtisodiyotning “drayveri” hisoblangan investitsiyalar kiritish hajmini yanada koʻpaytirish hamda investitsion ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- Sanoat tarmoqlarida samarali raqobat muhitini shakllantirish;
- Ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiyalash hisobiga sanoat tarmoqlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini taʼminlash;
- Sanoatda ilm-fanning eng soʻnggi yutuqlari – innovatsiyalarni joriy etish orqali milliy iqtisodiyotda uning ulushini yanada oshirish;
- Sanoatda kichik tadbirkorlik va xususiy sektorning ulushini yanada oshirish va bu orqali aholi turmush darajasi hamda farovonligini oshirish va boshqalar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

- 1.** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida” gi Farmoni // “Xalq soʻzi”. 8-fevral 2017-yil.
- 2.** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq soʻzi. 2018-yil 29-dekabr. № 271-272ю
- 3.** Kresl P.K., Singh B. Competitiveness and the Urban Economy// Urban Studies. 1999. Vol. 36. № 5-6.